

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

1.	Ushbu talabalarning qoidasi va shartlari
2.	Talabalarning qoidasi va shartlari
3.	Karakter va qo'shimcha surʼatlardan foydalanish
4.	Fanlar katalogi: <b>60211400 – Vokal sanʼati bakalavriat taʼlim yoʼnalishining</b>

Kelajkuv yaroqchi

**MALAKA TALABLARI**

“60211400 – Vokal sanʼati  
bakalavriat taʼlim yoʼnalishining” talabalarini qoida qoʼshuvchi  
taʼlimotni olib beruvchi Oʻzbekiston Respublikasi Toshkent viloyati  
Toshkent shahrida joylashgan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim vazirligining  
fanlar katalogi boʻlib, bu surʼatda qoʼshuvchilarning qoidasi va shartlari  
taʼlimotni olib beruvchi Oʻzbekiston Respublikasi Toshkent viloyati  
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim vazirligining 2024-yil “25” oqibatiga  
tugʼilgan 2024-yil “25” oqibatiga qoʼshuvchilarning qoidasi va shartlari

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston davlat konservatoriysi

O‘zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi  
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralarini (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

Tashkent shahar qoidasi “Vokal san'ati” ta’lim yo‘nalishi

Ilmiyiyat yozuvchisi: J. I. M.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

## 1. Umumiy tavsifi

60211400 - Vokal san’ati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60211400 - Vokal san’ati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy bo‘lim (boshqarma) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

San’at sohasidagi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professioanal ta’lim muassasalarida ta’lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish, san’at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san’atga oid ishlar bilan bog‘liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni, san’at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

San'at sohasidagi tegishli jarayonlar, ijodiy faoliyat, mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san'at sohasining axborot va dasturiy ta'minoti, yaratilgan asarlar va ularning targ'iboti, ijodiy g'oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish, o'quv-tarbiya jarayonlari.

60211400 - Vokal san'ati: akademik xonandalik, an'anaviy xonandalik, estrada xonandaligi ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilar opera va musiqali teatr, maqom yoki estrada jamoasi artist-vokalisti, yakka xonanda, kamer xonanda, illyustrator, xonandalik fanlari o'qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo'lishi mumkin.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ijodiy-ijrochilik;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lif muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat.

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60211400 - Vokal san'ati ta'lif yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;

ularni ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallah;

xonandalik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish, shu jumladan nafas olish, ovozni yetkazib berish, artikulyatsiya, ovoz diapazonini kengaytirish, intonatsiya va ekspressivlikni nazorat qilishni yaxshilash ustida ishlar olib borish;

ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini tushunish hamda baholash;

ijro etilayotgan asarning musiqiy obrazi, shakli va ma'nosini tinglovchiga yetkazish;

o'zining shaxsiy ijro uslubini yaratish;

katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;

ansamblarga rahbarlik qila olish;

musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, ansambllarda xonandalik qilish;

ijrochilikda improvizatsiya (badihago'ylik) ifodaviylik vositalarini qo'llashi va jamoada yakkaxonlik *qobiliyatiga ega bo'lishi kerak*.

### **Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lif tizimining ixtisoslikka mos ta'lif muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandard o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish va o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lif va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lif jarayoniga singdirish;

o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish;

o'quvchilarning o'z musiqiy uslublarini topishiga va musiqa orqali o'z fikrlarini ifodalashiga yordam berish orqali ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

### **Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatda:**

kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarda rahbar va maslahatchi sifatida keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ'ib etish;

yoshlar bilan musiqiy-tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish, aholi tarkibidagi har xil guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishni uddalash.

### **Tashkiliy-boshqaruva faoliyatida:**

ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;  
xonandalik ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq qilish;  
ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;  
ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;  
fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;  
xonandalik ishini tashkil qilish va uni boshqarish;  
bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish  
va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqot institatlari va ilmiy markazlarda musiqa san'atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirot etish;  
internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;  
musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rghanish;  
kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihamalarini o'rghanish;  
ilmiy-tadqiqot institatlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;  
ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;  
tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;  
ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

San'at asarlari samaradorligini baholash;  
axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;  
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;  
og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;  
axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish. Madaniyat va san'at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish hamda ta'lif jarayonlariga oid

da turli usul va texnologiyalarni ta'lif jarayoni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olgan holda ishlab chiqish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

tashkiliy tuzilmalarni ishlab chiqish, tashkilotlarning kadrlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarni taqsimlash va berish qobiliyati;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ta'lif yo'naliishi ixtisoslik fanlarini o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi;

nafas olishni nazorat qilish, turli registrlar va usullardan foydalanish, tovush va intonatsiyaning sofligini saqlay olishi;

musiqa nazariyasini bilish, notalarni o'qish, garmoniya va ritmn tushunish;

his-tuyg'u va hissiyotlarni ijro orqali yetkazish (*turli musiqiy uslublar va janrlarni talqin qilish*) qobiliyatiga ega bo'la olishi;

sahnada o'zini namoyon qila olish, jamoa bilan ishslash, imo-ishora va mimikalardan foydalanish qobiliyatiga ***ega bo'lishi lozim.***

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakillantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Malakaviy amaliyot (Ijrochilik amaliyoti);
3. Pedagogik amaliyot;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklarda hajmi soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<i>Vokal san'ati: akademik xonandalik</i>					
1.00		Majburiy fanlar	6300	210	
1.01	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	O'RT1102	O'zbek (rus) tili	60	2	1
1.03	XT1409	Xorijiy til	270	9	4--7

*Z.S.*

“60211400 – Vokal san’ati” ta’lim yo‘nalishi

1.04	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	7
1.05	FAL1104	Falsafa	120	4	7
1.06	MPP1105	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	4
1.07	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	5
1.08	AXII1818	Akademik xonandalik ijrochiligi	540	18	1--8
1.09	OTM1639	Opera tayyorlov mashg‘uloti	1170	39	3--8
1.10	JII1808	Jo‘rnavoz bilan ishlash (ixtisoslik sinfida)	240	8	1--8
1.11	KX1213	Kamer xor	390	13	1,2
1.12	JMT1209	Jahon musiqasi tarixi	270	9	2,3
1.13	O‘MT1210	O‘zbek musiqasi tarixi	300	10	1,2
1.14	O‘MN1105	O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi	150	5	3
1.15	AO‘M1104	An‘anaviy o‘zbek musiqasi	120	4	4
1.16	SHMT1105	Sharq xalqlari musiqa tarixi	150	5	6
1.17	SIO1205	Solfedjio	150	5	1,2
1.18	GYA1205	Garmoniya	150	5	1,2
1.19	MAT1204	Musiqa asarlari tahlili	120	4	3,4
1.20	PYA1204	Polifoniya	120	4	5,6
1.21	FNO1404	Fortepiano	120	4	1--4
1.22	XDU1104	Xonandalikdan dars berish uslubiyoti	120	4	8
1.23	AMA1206	Aktyorlik mahorati asoslari. Sahna harakati asoslari	180	6	7,8
1.24	IST1104	Ijrochilik san’ati tarixi (akademik xonandalik)	120	4	4
1.25	KMX1606	Kamer xonandalik	180	6	3--8
1.26	GSO1104	Grim va sahnnaviy obraz	120	4	6
1.27	AIT1207	Amaliy italyan tili	210	7	1,2
1.28	VAN1104	Vokal ansamblı	120	4	5
1.29	RSI1409	Raqs	270	9	5--8
<b>2.00</b>	<b>Tanlov fanlar</b>		<b>300</b>	<b>10</b>	<b>3,5,6,7</b>
<i>Kvalifikatsiya Xonanda, o‘qituvchi</i>					
		<b>JAMI:</b>	<b>6600</b>	<b>220</b>	
	<b>Malaka amaliyot</b>		<b>450</b>	<b>15</b>	<b>3,4,5,6,8</b>
	<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>		<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
	<b>JAMI:</b>		<b>600</b>	<b>20</b>	
	<b>HAMMASI:</b>		<b>7200</b>	<b>240</b>	

*Vokal san’ati: an‘anaviy xonandalik*

<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>6240</b>	<b>208</b>	
1.01	MYX1819	Maqom yakka xonandaligi	600	20	1-8
1.02	AS1848	Ansambl sinfi (an‘anaviy xonandalik)	1440	48	1-8
1.03	OYQ1404	Ovozni yo‘lga qo‘yish	120	4	1-4
1.04	MRIT1408	Maktab repertuarini innovatsion tizimlash	240	8	3-6
1.05	CHSO‘1810	Cholg‘u sozlarini o‘rganish	300	10	1-8
1.06	MXU1205	Maqom xonandaligi uslubiyoti	150	5	7-8
1.07	JMT1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.08	O‘MT1410	O‘zbek musiqasi tarixi	300	10	1-4
1.09	XMII1205	Xalq musiqa ijodiyoti	150	5	3-4
1.10	O‘BI1204	O‘zbek bastakorlik ijodiyoti	120	4	5-6
1.11	SHXMT1204	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	120	4	5-6
1.12	SO1102	Solfedjio	60	2	1
1.13	MSI1204	Maqom solfedjio	120	4	2-3

“60211400 – Vokal san’ati” ta’lim yo‘nalishi

1.14	<i>GYA1204</i>	Garmoniya	120	4	4-5
1.15	<i>MAT1205</i>	Musiqa asarlari tahlili	150	5	6-7
1.16	<i>AMI205</i>	Aruz va musiqa	150	5	1-2
1.17	<i>SHPA1204</i>	Shashmaqom parda (lad) asoslari	120	4	4-5
1.18	<i>MA1512</i>	Maqom asoslari (maqomlar tahlili)	360	12	3-7
1.19	<i>XKN1102</i>	Xalq kuylarini notalashtirish	60	2	5
1.20	<i>FNO1202</i>	Fortepiano	60	2	1-2
1.21	<i>PTPM1204</i>	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat	120	4	5-6
1.22	<i>MTG P1204</i>	Maqom turkumidagi g‘azallar poetikasi	120	4	5-6
1.23	<i>FTI408</i>	Fors tili	240	8	2-6
1.24	<i>MPP1204</i>	Musiqiy pedagogika va psixologiya	120	4	3-4
1.25	<i>KP1204</i>	Kasbiy pedagogika	120	4	7-8
1.26	<i>ATM1102</i>	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	60	2	1
1.27	<i>DNK1104</i>	Dinshunoslik	120	4	8
1.28	<i>FFA1204</i>	Falsafa	120	4	7-8
1.29	<i>O YT1205</i>	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
1.30	<i>SM1205</i>	Sahna madaniyati	150	5	7-8
1.31	<i>SN1102</i>	Sahna nutqi	60	2	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3-8</b>
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Xonanda, o‘qituvchi</i>			
		<b>JAMI:</b>	<b>6600</b>	<b>220</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>JAMI:</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
		<b>HAMMASI:</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	


*Vokal san’ati: estrada xonandaligi*

Majburiy fanlar					
<b>1.00</b>					
1.01	<i>EX1818</i>	Estrada xonandaligi	540	18	1,2,3,4,5,6,7, 8
1.02	<i>MT1820</i>	<b>Musiqa tarixi</b> (O‘zbek musiqasi tarixi; Jahon musiqasi tarixi; An‘anaviy o‘zbek musiqasi; O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasи; Sharq xalqlari musiqasi tarixi va etno-jaz)	600	20	1,2,3,4,5,6,7, 8
1.03	<i>MET1819</i>	<b>Musiqiy estrada tarixi</b> (Jaz musiqasi tarixi; Rok musiqasi tarixi; Pop musiqasi tarixi; O‘zbekiston musiqiy estrada san’ati tarixi)	570	19	1,2,3,4,5,6,7, 8
1.04	<i>MN1525</i>	<b>Musiqa nazariyasи</b> (Solfedjio; Jaz solfedjiosi; Garmoniya; Jaz garmoniyasi; Musiqa asarlari tahlili)	750	25	1,2,3,4,5,6
1.05	<i>MPP1105</i>	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	3
1.06	<i>KP1204</i>	Kasbiy pedagogika	120	4	4,5
1.07	<i>DIN1104</i>	Dinshunoslik	120	4	2
1.08	<i>JMS1102</i>	Jismoniy madaniyat va sport	60	2	1
1.09	<i>FAL1104</i>	Falsafa	120	4	8
1.10	<i>O EYT1104</i>	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1

*300/16-*

1.11	<i>XT1615</i>	Xorijiy til	450	15	3,4,5,6,7,8
1.12	<i>FOR1205</i>	Fortepiano	150	5	1,2
1.13	<i>ANS1835</i>	Ansambl	1050	35	1,2,3,4,5,6,7, 8
1.14	<i>IMP1306</i>	Improvizatsiya	180	6	4,5,6
1.15	<i>OJK1204</i>	Orkestr jo'rligida kuylash	120	4	7,8
1.16	<i>RQS1409</i>	Raqs	270	9	1,2,3,4
1.17	<i>EXO'U1311</i>	Estrada xonandaligiga o'qitish uslubiyoti (Pedagogik repertuarni o'rganish)	330	11	6,7,8
1.18	<i>SHBA1205</i>	Shou-biznes asoslari	120	4	7,8
1.19	<i>NM1102</i>	Nutq madaniyati	60	2	2
1.20	<i>SM1410</i>	Sahna mahorati	300	10	5,6,7,8
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	300	10	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	3-7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Xonanda, o'qituvchi</i>			
		<b>Jami:</b>	<b>6510</b>	<b>217</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	540	18	2,3,4,5,6,7,8
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	150	5	8
		<b>Jami:</b>	<b>690</b>	<b>33</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

### Bibliografik ma'lumotlar



UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Xonanda, maqom, estrada, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'naliishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv rejasi va o'quv dasturlari, malaka talablari, sohalar, sifatini baholash va nazorat, mustaqil ta'lif, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, akademik xonandalik, an'anaviy xonandalik, estrada xonandaligi, ijodiy faoliyat, ovoz, artikulyatsiya, diapazon, intonatsiya, ekspressivlik, o'quv-tarbiyaviy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



M.O'.

O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi  
Botir Zokirov nomidagi  
Milliy estrada san'ati instituti



M.O'

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish markazi




M.O'.



M.O'.

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



M.O'

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi "Ta'lif sohasini  
muvofiqlashtirish" bo'limi



M.O'.

O'zbekiston davlat filarmoniysi



M.O'.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat  
akademik Katta teatri

Direktor

R.B.Usmanov



202 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

V.Uspenskiy nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi

Direktor

Z.K.Zairov



202 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

O'zbek milliy maqom san'ati markazi

Direktor

A.A.Shomurodov



202 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

Karim Zaripov nomidagi Respublika Estrada va  
sirk kolleji

Direktor

K.F.Zaripova



202 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan  
musiqa maktabi

Direktor

A.X.Djamaldinov



202 yil « \_\_\_\_ »

M.O.